



XALQ PEDAGOGIKASIDA QIZLAR TARBIYASINING AKS ETISHI

Ajiniyoz nomidagi NDPI "Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi"

*1-kurs magistranti **Gu'ibanu Toxtamuratova***

ANNOTATSIYA: *Tayanch tushunchalar; Xalq pedagogikasi, qiz bolalar tarbiyasi, an'ana va qadriyatlar, og'zaki ijod, xalq erteklari, qiz bola tarbiyasida ota-onalar ro'li.*

Annotaciya; *Bu maqolada xalqimizning qiz bolalar tarbiyasida xalq pedagogikasining tutgan ro'li, an'ana va qadriyatlarning o'ziga hosligi, shu bilan birga ota-onalarning ham muhim o'rin tutishi haqida aytib o'tilgan.*

Key concepts; *Folk pedagogy, the upbringing of girls, traditions and values, oral creativity, folk tales, the role of parents in raising girls.*

Annotation; *This article discusses the role of folk pedagogy in the upbringing of girls, the uniqueness of traditions and values, and the important role of parents.*

Qiz bola bu hayotning ma'nosi, jamiyatning go'zalligi va kelajakning zaruriy tayanchi hisoblanadi. Har bir xalqning madaniyati, qadriyatlari va taraqqiyot darajasi, avvalo, undagi ayol va qizlarga bo'lgan munosabat orqali baholanadi. Shu sababli ham qizlarni tarbiyalash, ularning huquqlarini ta'minlash va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash har bir davrda jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Qiz bola tug'ilgan kunidan boshlab mehribonlik, xulq-atvor pokligi, ibo, chidamlilik kabi go'zal fazilatlar timsoli bo'lib shakllanishi kerak. Oilada mehr-muhabbat tarqatuvchi, farzandlarga tarbiya beradigan mo'tabar ona bo'lishga tayyorlanayotgan qizlar avvalo bilimli, aqlli va shijoatli bo'lishi kerak. Ona "Bir qo'li bilan beshikni tebratsa, ikkinchi qo'li bilan dunyoni tebratadi," degan hikmatli so'z bejiz aytilmagan. Bugungi kunda qizlar nafaqat uy-ro'zg'or ishlarida, balki siyosat, fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda ham faol ishtirok etmoqda. Ko'plab qizlar davlat boshqaruvi, ilmiy tadqiqotlar, tadbirkorlik hamda ijtimoiy hayotda o'z



o'rnini topib, ibrat bo'lib kelayotgani barchamizga ma'lum. Shu bilan birga, qizlarning tarbiyasiga katta e'tibor berilishi zarur. Ularning huquqlarini himoya qilish, salbiy ta'sirlardan asrash, ijtimoiy himoya tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, maktab va oliy ta'limda qizlarga alohida sharoit yaratish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yaratilgan.

Qiz bola tarbiyasi oilaning eng muhim vazifalaridan biri. Qiz bolani kelajakda aqlli, bilimli va yaxshi ona bo'lishga tayyorlash uchun ota-onalar ularni kichikligidan boshlab to'g'ri tarbiyalashlari kerak. Bu jarayon uzoq vaqt davom etadi va ko'p kuch talab qiladi, lekin natijasi kelgusida jamiyat uchun juda foydali bo'ladi. Har bir qiz bolaning o'z qiziqishlari, iste'dod va qobiliyatlari turlicha bo'ladi. Ota-onalar bu xususiyatlarni erta aniqlab, ularni rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Masalan, agar qiz bola rasm chizishga qiziqsa, unga kerakli jihozlar olib berish, ko'rgazmalarga olib borish yoki maxsus kurslarda o'qitish orqali uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. Shunday qilib, qiz bolaning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish orqali uning kelajakda o'z o'rnini topishiga yordam bergan bo'lamiz.

Xalq pedagogikasida qizlarni yoshligidan mehnatsevarlik va kasb-hunarga havas tuyg'usini tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Turli kasb egalari bo'lgan ota-onalar, opa-singillar bilim va tajribalarini farzandlariga qunt bilan o'rgatgan, ularni ustoz-shogird sifatida dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, tikuvchilik kabi sohalarga qiziqtirib borgan. Xalq pedagogikasida qizlarga odob-axloq qoidalarini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etgan. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, rostgo'ylik kabi fazilatlar qizlarga yoshligidan singdirilgan. Bunga bog'liq xalq maqollari, masalan, "Odob - boylik, odobsizlik - qayg'u" kabi hikmatlar tarbiyada qo'llanilgan. Milliy urf-odat va an'analar qiz bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. To'y an'analari, bayramlar, oilaviy bayramlar orqali qizlarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar o'rgatilgan.



Qoraqalpoq xalq pedagogikasida qiz bola tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Asrlar davomida shakllangan og‘zaki ijod namunalarida qizlarning axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Xalq ertaklari qizlarning axloqiy va estetik tarbiyasida ta’siri juda ulkan. Ertaklardagi qahramonlar orqali qizlarga halollik, mehnatsevarlik, sadoqat kabi fazilatlar singdiriladi. Maqol sodda va qisqa iboralar orqali hayotiy tajribalarni yetkazadi. Masalan, "Qiz bola el, xalq ko‘zgusi" qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini aytib o‘tadi. Bu kabi maqollar qizlarga odob-axloq qoidalarini o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari qizlarning estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Qo‘shiqlar orqali qizlar ongiga milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar haqida ma’lumot beradi. Masalan, "Alla" qizlarning onalik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, "Havjar" kabi an’anaviy qo‘shiqlar qizlarga oilaviy hayotga tayyorlanishda yordam beradi. Har bir xalqning o‘ziga xosligi - uning san’ati va madaniyatidir. Ayniqsa, milliy qo‘shiqlar xalqning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari va g‘ururini ifoda etadi. Shuningdek, ma’naviy boylıklardan biri "Havjar" qo‘shig‘i bo‘lib, u o‘zining chuqur mazmuni, kuchli ta’sirchanligi va madaniy qadriyatlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Havjar kim edi? Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Havjar arab xalq afsonalaridagi mard ayollardan biri bo‘lib, uning sabri, iymoni va faolligi musulmon olamida yuksak qadrlanadi. U Ibrohim payg‘ambarning xotini, Ismoil payg‘ambarning onasi sifatida mashhur. Uning sahroda yolg‘iz qolgan holda bolasini saqlab qolish yo‘lidagi kurashi, hozirgacha musulmonlar uchun yashash manbai bo‘lib kelyapti. U holatda bir ayolning yolg‘iz yagona kuch bilan qanday qilib og‘ir sinovlarga bardosh bergani, o‘z bolasini tirik saqlab qolish yo‘lida kurashgani anglashiladi. She’r matni odatda tovushlar uyg‘unligi chuqur hissiyotga boy bo‘lib, tinglovchiga kuchli ta’sir etadi. Xalq qo‘shiqlarida qiz bolaning or-nomusi eng yuqori turadi. Qoraqalpoq xalq poeziyasida bular orqali qizlarning qalbiga yaxshilik, imon elga hurmatli bo‘lish kabi qadrli sifatlar singdiriladi.



Qoraqalpoq dostonlarida ham qiz bola roliga alohida o‘rin ajratilgan. Masalan; Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida alohida o‘rin egallagan dostonlar xalqning orzu-umidi, turmush tarzi, urf-odatlarini, qadriyatlarini aks ettirgan bebaho ma‘naviy meroslardir. Ularning eng mashhurlaridan biri "Alpomish" dostoni. Dostondagi asosiy ayol obrazi - Barchin. U Alpomishning yaxshi ko‘rgan yori hisoblanadi. Barchin shunchaki go‘zal emas, u juda topqir, intellektual salohiyati bor. yuksak, o‘z taqdirini o‘zi hal qila oladigan ayol sifatida tasvirlanadi. U Alpomishni sinovdan o‘tkazish orqali uning o‘zining sadoqatini tekshiradi, o‘zining munosib umr yo‘ldosh tanlashdagi qat‘iyatini ko‘rsatadi. Barchin dostonida nafaqat muhabbat ramzi, balki vatanparvarlik, faollik va matonat timsolidir. Uning Alpomishni kutib yashashi, turli to‘siqlarga qaramay unga sodiq qolishi ayolning aniq o‘zining saboqligini ko‘rsatadi. U o‘z taqdirini boshqarishga intilishi bizga qadimgi turkiy ayollar g‘ayratli va mustaqil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qiz bola tarbiyasi ota-onaga katta mas‘uliyat yuklaydi. Islomda ota-onaga farzandlar oldidagi burchlarini unutmaslik buyurilgan. Ayniqsa, onalar o‘z qizlariga ibratli bo‘lishlari kerak. Islom qiz bolani nafaqat tarbiyalashni, balki uni har tomonlama himoya qilishni ham buyuradi. Qiz bola jismoniy va ruhiy jihatdan himoya ostida bo‘lishi kerak. G‘iybat, tuhmat va boshqa zararli odatlardan uzoq tutish kerak. Islomda voyaga yetmagan qizni majburan turmushga berish qat‘iyan taqiqlangan. Nikohda qizning roziligi muhim ahamiyatga ega. Rasululloh (s. a. v.) ham bunga bog‘liq adolat va rozilikni ustun qo‘ygan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda qizlarning o‘rni juda katta hisoblanadi. Ular jamiyatning mehr-muhabbat manbai, oila tayanchi, kelajak avlodni tarbiyalaydigan ustozlardir. Qizlarimizni asrab-avaylab, ularga ishonch bildirgan holda, biz yanada adolatli, barqaror va baxtli jamiyat sari qadam qo‘yishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Musurmanova O, Bawbekova G "O‘zbek xalq pedagogikasi"-T.2000.
2. Jabbarov.I "O‘zbek xalqi etnografiyasi"-T.1994.
3. Xoshimov K, Nishanova S ham tagi baslar "Pedagogika tarixi"-T.1996.



4. Saparbaev T “Mektep dogerek jumislarinin’ pedagogikaliq ahmiyeti” No’kis
“NMPI Baspasi”-2025.